

Soliq nazoratini amalga oshirishning qiyosiy-huquqiy tahlili

Sevinch Maxsudjon qizi Muradullayeva
 muradullaevas19@gmail.com
 Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida xorijning bir qancha rivojlangan mamlakatlarida soliq nazoratini amalga oshirish asoslari, soliq nazoratining O‘zbekiston Respublikasidagi amaliyot va qonunchilik bilan o‘zaro o‘xhash va farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit, correspondence audit, office audit, field audit, aspect tax audit, full tax audit, desk tax audit, Business records checks, Civil investigation of fraud(CIF)

Comparative legal analysis of tax control

Sevinch Makhsudjon qizi Muradullayeva
 muradullaevas19@gmail.com
 Tashkent State Law University

Abstract: This research study analyzes the basics of tax control in a number of developed foreign countries, the similarities and differences between tax control and the practice and legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: tax control, tax audits, tax monitoring, in-house tax audit, mobile tax audit, tax audit, correspondence audit, office audit, field audit, aspect tax audit, full tax audit, desk tax audit, Business records checks, Civil investigation of fraud (CIF)

Kirish. Dunyo mamlakatlarida inson huquqlari, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi va boshqa huquq sohalarida ayrim umumiyligi qoidalar mavjud. Biroq soliq nazorati tadbirlariga oid dunyo mamlakatlarida umumiyligi tartib-qoidalar mavjud emas. Soliq nazoratiga oid qoidalar har bir davlat uchun individual xarakterga ega. Fikrimizcha, bunga asosiy sabab har bir davlat o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy holatidan kelib chiqib u yoki bu soliq nazorati tadbirlarini joriy qilganligidadir. Haqiqatan, davlatlar turli jihatlariga ko‘ra o‘zaro farqli bo‘lganligi sababli bir davlatdagi qoidalar boshqa bir davlatda bir xilda qo‘llanilsa ham ko‘zlangan natijalarga olib kelmasligi mumkin.

Ayni paytda dunyo mamlakatlarida iqtisodiy barqarorlik turlicha bo‘lsa-da, tarixning takrorlanish xususiyatini inobatga olgan holda xorijiy mamlakatlarning


qonunchilik tajribasini o'rganish va tahlil qilish, ulardan kerakli xulosa chiqara olish biz uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli, mazkur tadqiqot ishida soliq nazoratining xorijiy mamlakatlardagi holatini soliq ma'murchiligi anchagini yaxshi yo'lga qo'yilgan Amerika qo'shma shtatlari, Buyuk Britaniya va Hindiston misolida o'rganib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili: O'zbekiston Respublikasida soliq-huquqiy munosabatlar Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. Unga muvofiq, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida soliq nazorati soliq monitoringi va soliq tekshiruvlari shakilida amalga oshiriladi. Soliq tekshiruvlarining uchta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Kameral soliq tekshiruvi;
2. Sayyor soliq tekshiruvi;
3. Soliq auditi.

Hozirgi kunda Amerika qo'shma shtatlarida vakolatli soliq organi www.irs.gov Internal Revenue Service - (Ichki Daromad Xizmati, keyingi o'rinnarda IRS deb yuritiladi) tashkiloti hisoblanadi va barcha soliqqa oid harakalar, soliqlarni yig'ish, shuningdek, soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish kabi boshqa xizmatlarni ham amalga oshiradi. Amerika qo'shma shtatlarida Ichki daromad kodeksi (Internal Revenue Code) qabul qilingan bo'lib, mazkur qonun hujjatida soliq-huquqiy munosabatlar tartibga solingan.¹

Amerika qo'shma shtatlari soliq nazoratining turlari quyidagilardan iborat:



Mazkur soliq tekshiruvlarining turlari haqida Valentin Gabriel G. o'zining maqolasida quyidagi qisqacha ma'lumotlarni keltirib o'tgan:

“• Correspondance audit: eng jiddiy audit turidan bir bo'lib, IRS tashkilotining soliq to'lovchiga xat yuborishni o'z ichiga oladi. Ushbu xat orqali IRS soliq to'lovchining soliq deklaratsiyasining alohida bandlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumot yoki tushuntirishlarni talab qiladi.

• Office auditi: Office tekshiruvi birinchi turdag'i soliq tekshirishga qaraganda jiddiyoq va soliq to'lovchidan qo'shimcha ma'lumot yoki hujjatlarni taqdim etish uchun IRS ofisiga tashrif buyurishini talab qiladi.

¹ <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title26/pdf/USCODE-2011-title26.pdf>

- Field audit: ushbu turdag'i audit eng jiddiy hisoblanadi va IRS auditni o'z ichiga oladi soliq to'lovchining ish joyi yoki uyida o'tkaziladi.”²

Quyida biz Amerika qo'shma shtatlarida mavjud bo'lgan soliq tekshiruvlari haqida to'xtalib o'tamiz:

1. Correspondance audit: ushbu soliq tekshiruvi turi O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi kameral soliq tekshiruviga anchayin yaqin bo'lgan soliq nazorati tadbirlaridan biri hisoblanib, bunda soliq nazorati hujjatlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Mazkur tekshiruv turida Ichki daromadlar xizmati organi (keying o'rinnlarda IRS-Internal Revenues Service) soliq deklaratsiyasida kichik farqlar va noaniqliklarni aniqlashtirish uchun pochta orqali qo'shimcha hujjatlarni soliq to'lovchidan talab qilib oladi va tekshiradi. Hujjatlar orqali soliq nazoratini amalga oshirish kameral soliq tekshiruviga o'xshasa-da, correspondence auditda kameral soliq tekshiruvida farqli ravishda soliq to'lovchidan qo'shimcha hujjatlar talab qilib olinadi va zarur hollarda soliq to'lovchining o'zi ham organga chaqiriladi. Ushbu soliq tekshiruvi Amerika qo'shma shtatlaridagi boshqa soliq tekshiruvi turlaridan soliq organining eng kam aralashuvi talab etiladigan turi sanaladi. IRS ushbu tekshiruv turida quyidagi holatlardagina qo'shimcha hujjatlar talab qilishi mumkin:

1. Soliq deklaratsiyasidagi farqlarni aniqlash zarur bo'lganda;
2. Daromadlarni noto'g'ri ko'rsatilganda;
3. Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha ariza topshirilgan hollarda.

Soliq to'lovchi tegishli hujjatlarni taqdim etmasa yoki IRSning so'rovlariga javob bermasa, mazkur tekshiruv turida ham soliq to'lovchi ham soliq organiga chaqirtirilishi mumkin.

2. Office audit: ushbu soliq tekshiruvi turi IRS ofisida o'tkaziladi va buyurtma xat orqali o'tkaziladigan auditlarga qaraganda batafsilroq hisoblanadi. Office audit soliq tekshiruvi turi pochta orqali hal etib bo'lmaydigan masalalarni qamrab oladi va soliq to'lovchidan tegishli hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishni talab qiladi. Soliq to'lovchiga office auditga borishdan oldin IRS tomonidan auditning kuni, vaqt, joyi va talab qilinayotgan hujjatlar ro'yxati mavjud bo'lgan xabarnoma yuboriladi. Mazkur xabarnomada nima uchun office audit soliq tekshiruvi turi o'tkazilayotgani haqida ham ma'lumot beriladi. Odatda office audit tranzaksiyalardagi shubhali holatlar sababli amalga oshirilishi mumkin.

3. Field audit: mazkur soliq tekshiruvi soliq to'lovchining manzilida amalga oshiriladi va boshqa soliq tekshiruvlariga qaraganda anchayin chuqur amalga oshiriladi. IRS agenti keng ko'lamli tekshiruvlarni amalga oshirib barcha hujjatlarni, korxonaning aktivlarini tekshiradi va soliq deklaratsiyasi bo'yicha batafsil savollar beradi. Bu turdag'i auditlar odatda murakkab soliq vaziyatlarida qo'llaniladi. Bu

² Cristea, V.G., 2023. TAX AUDITS ON THE USA LABOUR MARKET. Challenges of the Knowledge Society, pp.624-631.

tekshiruv turi murakkabligi jihatidan bizning soliq auditi tekshiruv turi bilan o‘xshash hisoblanadi.

Har bir tekshiruv turi soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi va to‘lanishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Auditning murakkabligiga qarab, uning davomiyligi turlicha bo‘lishi mumkin.³

Buyuk Britaniya soliq tekshiruvlari masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Buyuk Britaniyada, Soliq va Bojxona boshqarmasi (HMRC) vakolatli davlat organi hisoblanib, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash maqsadida soliq nazoratini amalga oshiradi. Buyuk Britaniyada soliq tekshiruvlarining quyidagi turlari mavjud:



Aspect tax audit - mazkur soliq tekshiruvi ixtisoslashgan soliq tekshiruvi hisoblanib, soliq to‘lovchilarning butun faoliyati ustidan tekshiruv olib bormasdan faqatgina ma’lum bir yo‘nalishda soliq tekshiruvini amalga oshiradi. Masalan, faqatgina deklaratsiyani ko‘rib chiqadi va uning soliq qonunchiligiga muvofiqligini aniqlaydi. Ixtisoslashgan tekshiruvning amalga oshirilishi soliq tekshiruvining aniq va sifatlari amalga oshirilishiga yordam beradi.

Full tax audit - mazkur tekshiruv turi aspect tax auditga qaraganda chuqurroq tekshiruv turi bo‘lib, bunda soliq inspektori soliq to‘lovchining barcha moliyaviy hisobotlari va buxgalteriya operatsiyalarini ko‘rib chiqadi. Bu turdagи auditlar odatda, HMRC soliq deklaratsiyasida katta xatoliklar yoki nomutanosibliklar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Desk tax audit - mazkur soliq tekshiruv turi Co bu auditlar buyurtma xat orqali o‘tkaziladi va soliq to‘lovchilardan ma’lum hujjalarni pochta yoki elektron pochta orqali taqdim etishni talab qiladi. Bu tekshiruv turi kamroq aralashuvchan, lekin baribir soliq to‘lovchidan to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot taqdim etishni talab qiladi.

Business records checks - ushbu tekshiruv turi vakolatli organlar tomonidan emas soliq to‘lovchilar (tadbirkorlik subyektlari) tomonidan soliq qonunchiligidagi belgilangan talablarga muvofiq zarur va aniq moliyaviy hisobotlar saqlanishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu tekshiruv turi soliq tekshiruvi

³ <https://www.irs.gov/> Amerika Qo‘shma Shtatlari soliq organlari yagona tizimi.

hisoblanmasa-da soliq qonunchiligidagi rioya etilishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Civil investigation of fraud (CIF) - ushbu tekshiruv turi ancha keng qamrovli, jiddiy tekshiruv turi hisoblanadi. Mazkur tekshiruv turi jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan hollarda o'tkaziladi. Bunda vakolatli organ HMRC bir necha yillik soliq to'lovchining hujjatlarini chuqur tekshirishadi. Agar firibgarlik, soliqdan qochish holatlari aniqlansa, HMRC katta jarimalar qo'llashi va jinoiy ish qo'zg'atishi mumkin.

Hindistonda soliq nazoratiga oid huquqiy munosabatlar 1961-yilda qabul qilingan "Daromad solig'i to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasidan farqli ravishda Hindistonda soliq tekshiruvlarini amalga oshirish muddatlari qat'iy belgilab qo'yilmagan, soliq to'lovchilar har yilning 30 sentyabriga qadar soliq hisobotlarini soliq organlariga taqdim etishlari kerak. Soliq to'lovchilar tomonidan hisobotlarning o'z vaqtida toshirilmasligi soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori qiymatli operatsiyalar, daromaddagi tafovutlar, oldingi tekshiruv natijalari soliq tekshiruvlarini boshlash uchun asos bo'ladi.

Daromad solig'i to'g'risida"gi Qonunga muvofiq hozirgi vaqtda Hindistonda uch turdag'i soliq tekshiruvlari mavjud:

Daromad solig'i tekshiruvi

Tovarlar va xizmatlar solig'i (GST) auditi

Transfer bahosi auditi

Daromad solig'i tekshiruvi: soliq to'lovchining moliyaviy hisobotlarini tekshirish va daromadlar, chegirmalar, imtiyozlar va boshqa holatlar to'g'risida hisobot berishni ta'minlash uchun o'tkaziladi.

Tovarlar va xizmatlar solig'i (GST) auditi: Mazkur tekshiruv turida soliq hisobotlarining to'g'ri yuritilishi, taqdim etilgan deklaratsiyalarning to'g'riliqi, soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanilganligini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Transfer bahosi auditi: o'zaro bog'liq tomonlar o'rtasidagi bitimlarga e'tibor qaratilib, ular transfer narxini belgilash qoidalariga muvofiq bir xil narxlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, soliq nazorati tadbirlari turli mamlakatlarda turlicha yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda farqli va o'xshash jihatlar mavjud. Masalan, qonunchiligi tahlil qilingan deyarli barcha davlatlarda kameral soliq tekshiruvi va soliq auditiga o'xshash soliq tekshiruvi turlari mavjud ekan. Shunday bo'lsa-da, ular to'la o'xshash bo'lmasdan ayrim farqli jihatlar mavjud ekan. Buyuk Britaniyada aspect tax audit ayni

bir yo‘nalishda soliq nazoratini amalga oshirishda yordam berar ekan, fikrimizcha ixtisoslashuvning mavjudligi tekshiruvning chuqur va to‘liqroq amalga oshirishda yordam beradi. Moliyaviy nazorat turlaridan biri bo‘lgan ixtiyoriy audit Buyuk Britaniyada ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra mazkur tekshiruv tadbirkorlik subyektlarining tashabbusiga ko‘ra xususiy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi/30.12.2019. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси;
2. Адвокатова А.С. Налоговый контроль в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М., 2013. - 26 с. // Advokatova A.S. Tax control in conditions of modification of relations between tax authorities and taxpayers. Abstract of the dissertation for the degree of candidate of economic sciences. - M., 2013. - 26 p;
3. Нестеров Г.Г. Развитие механизмов налогового контроля в системе обеспечения экономической безопасности. Автореферат дис. д.э.н. - М., 2010. С. 17;
4. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title26/pdf/USCODE-2011-title26.pdf>;
5. Cristea, V.G., 2023. TAX AUDITS ON THE USA LABOUR MARKET. Challenges of the Knowledge Society, pp.624-631